

**ZAMONAVIY DUNYODA G'ALABA KUNINING MA'NOSI:ULUG' VATAN
URUSHI SABOQLARI VA MEROsi**

Pardaqulov Bunyodbek Ibrohim o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-bosqich talabasi

bunyodbekibrohimovich66@gmail.com

+998951117029

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimiz uchun jonini fido etgan ota-bobolarimiz timsoli va hozirgi insonlarni ota-bobolarimiz darajasiga yetishaolmayotganligi. Bizning shu kunlarda tinch yashayotganligimizda qo'shgan alohida hissalari. Shu buyuk g'alabani shukuhi va hozirgi g'alabanimg ma'nosi va shukuhi haqida so'z bo'ladi. SSSR davrining hozirgi davr bilan taqqoslash va biz vatan deb atagan SSSR uchun to'kkan qonli jangimiz. Bizning xalqimizni qoni evaziga erishilgan g'alaba shukuhi xalqimizni dunyo qarashini batamom yo'q qilinishi. Shunday bo'lsada halol g'alabamiz xalqimiz uchun tinchlikni boshlanishi avlodlarga o'rnak bo'lган Jadidlarimizning saboqlari va urush orqali in'om etilgan moddiy emas ma'naviy tarzida berilgan me'ros, dalda hozirgi yoshlarni fikru-hayolini yig'volishi uchun, kelajakga katta qadamlar tashlashlari uchun ong va tafakkurni rivojlantirishimiz kerakligi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Dunyo qarash, huquqiy ong, SSSR, huquqiy madaniyat, bobokalon, Jadidlar, in'om, kelajak, tafakkur,

Kirish: Darhaqiqat inson hoziri kunga kelib tubdan o'zgardi deb bemalol aytsak ham bo'ladi. Oldinga hayot bilan hozirgi hayotni taqqoslash bu fantastika dek tuyuladi. XXI asr insonlari oldingi asr insonlariga qaraganda dunyoqarash jihatidan, ong jihatidan, tafakkur jihatidan ham tubdan farq qiladi. Zamonaviy dunyoda g'alaba kunining ma'nosi nima degani? Zamonaviy dunyo bilan oldingi ya'ni oldingi dunyoniga'labasini farqi nimada? Eng avvalo g'alaba deganda nimalarni tushunishimiz kerak? Bizda savollar juda ko'p ammo javoblar tanqis hisoblanadi. Ulug' vatan urushi nima biz SSSR davridagi urushni ya'ni 2- jahon urushini biz uchun o'zbeklar uchun ulug' vatan urushi deb hisoblasak bo'ladimi. Albatta ulug' vatan urushi deb hisoblagan taqdirda ham bizga bu urush saboqlar berdimi yoki biron bir foyda, me'ros berdimi degan savollar bor albatta. Biz SSSR uchun kurashganimizda biz uchun kim kurashdi. Bizning dunyoqarashimizni rivojlanmaslikka ruslar juda urindi, urinish chog'ida jadidlarimizni qirib tashladi jadidlarimiz bizga to'g'ri yo'l ko'rsatardi albatta shuning. Bekorga aytishmaydibiron bir mamlakatning xaliquini ongsiz qilib o'zinga tobe

qilmoqchi bo'lsangiz eng birinchi *kutbxonasini* yo'q qilishingiz kerak keyin esa *Dinini* deyilgan.

Zamonaviy dunyoda g'alaba so'zini hamma har xil tavsiflaydi bazi insonlar bu so'z oddiydek tuyuladi bazi insonlarga bu judxa katta faxr hisoblanadi. Hozirga kelib bu tushuncha keng omma oldida kamdan kam qo'llaniladi. Chunki g'alaba so'zi hozirda korrupsiya bilan chambarchas bo'g'liq bo'lib qoldi. Puli bor inson g'alabani ilib ketadi hoh u mosobaqa bo'lsin hoh bu ilm olish yo'lida bo'lsin shunaqa darajaga kelib qoldik. Kimning puli bo'lsa har doim 1-o'rinn tayyor desa ham bo'ladi. Qadimgi insonlar halol yo'l bilan g'alabaga erishgan g'alaba hissini tuyganda o'zini boshqacha inson ya'ni omadli deb hisoblagan. Hzoirda 2 turdag'i insonlar bor. Birinchi turdag'i insonlar ular xarom yo'l bilan erishilgan g'alabani yaxshi ko'rmaydi hushlashmaydi va iloji boricha shu g'alabadan kelgan sovg'alarni yo'q qilishga urinishida u inonlarni shu ishga majburlamasganligida o'z kuchi bilan kech bo'lsa ham erishish imkoniyati bor edi. Ikkinci toifaga kiradigan insonlar xarom yo'l bilan erishgan g'alabasini faxr bilan maqtanib yuradi o'zining zarracha mehnati ketmagan bo'lsa ham faxr bilan yuradi. Mehnat qilmaydi va mehnat qilgan insonlar esa pas o'ringa tushib qoladi. Shuning uchun inson g'alabaga erishdimi har doim o'ziga savol berishi kerak shu g'alabaga men loyiqlamanmi deb.

G'alaba so'zining ma'nosini judayam keng hisoblanasi masalan

1- g'alaba jang yoki bellashuv (kurash)da qozonilgan (erishilgan) muvaffaqiyat; zafar.

2- ish-faoliyat, maqsad yo'lida erishilgan muvaffaqiyat, yaxshi natija; yutuq.¹

Ulug' Vatan urushi (Ikkinci jahon urushi; 1941-yil — 9-may 1945-yilshuningdek Ikkinci jahon urushining **Sharqiy fronti** — fashistlar Germaniya va uning Yevropa ittifoqchilariga (Vengriya, Italiya, Ruminiya, Slovakiya, Finlyandiya, Xorvatiya) qarshi urushi. Urush o'z qo'shinlarining Sovet hududiga jahon tarixidagi eng yirik quruqlik bosqinidan boshlani oxirida Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarini nemis istilosidan ozod qilish bilan yakunlandi. Ko'lami jihatidan bu jahon tarixidagi eng yirik va qonli qurolli to'qnashuv edi Sharqiy front Qizil armiya g'alabasi va Germaniya qurolli kuchlarining taslim bo'lishi bilan yakunlangan Ikkinci jahon urushining asosiy tarkibiy qismi edi. „Ulug' Vatan urushi“ nomi sovet tarixshunosligida paydo bo'lgan va hozirgacha, birinchi navbatda, Rossiya Federatsiyasida qo'llaniladi; dunyoning aksariyat mamlakatlarida urush Sharqiy front deb ataladi, hozirgi nemis va ukrain tarixshunosligida — shuningdek, „Germaniya-Sovet urushi“ deb ham nomlanadi.²

Sobiq Sovet Ittifoqi hukmronligi paytida 9-may har yili Ulug' vatan urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alaba kuni sifatida nishonlanib kelinar edi. Ammo

¹ <https://izoh.uz/word/g%E2%80%98alaba>

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Ulug%CA%BB_Vatan_urushi

O'zbekiston mustaqil bo'lganidan keyin ushbu sana nomi o'zgardi hamda urushga Ikkinci jahon urushi sifatida qarash qayta tiklandi. 9-may esa Xotira va qadrlash kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda. Insoniyat tarixidagi eng qirg'inbarot urush deya e'tirof etiladigan Ikkinci jahon urushi rasman 1939-yil 1-sentabrdan 1945-yil 2-sentabrgacha davom etdi. Urushda dunyoning ikki harbiy-siyosiy bloki – Germaniya–Italiya–Yaponiya boshliq Berlin–Rim o'qi hamda Buyuk Britaniya va Fransiya boshliq Ittifoqchilar qo'shnlari to'qnash keldi. Uchinchi reyx deya e'tirof etilgan Gitler Germaniyasining siyosiy ambitionsiyalari qarshisida ojizlik qilgan G'arb davlatlari hukumatlarining harakatsizligi oqibatida 1939-yilning 23-avgustida Germaniya va Sovet Ittifoqi o'zaro hujum qilmaslik to'g'risida yashirin bitimni imzoladi. Ushbu bitimning kelishuv nuqtasi Polsha edi. Shu yilning 1-sentabr kuni Germaniya Polshaga bostirib kirdi va uning g'arbiy qismlarini egallab oldi. Ushbu sana rasman Ikkinci jahon urushining boshlanishi hisoblanadi. 3-sentabr kuni Buyuk Britaniya va Fransiya Germaniyaga urush e'lon qilinadi.

Germaniya bilan bir paytda Polshaga kirishi kerak bo'lgan Sovet ittifoqi bu ishni 17-sentabrga kelib amalga oshirdi. Polsha Germaniya va SSSR o'rtaida bo'lib olindi. Polsha bo'lib olinganidan keyin Stalin Finlyandiyaga bostirib kirish haqida topshiriq berdi va tarixda Sovet–fin urushi nomini olgan urush bo'lib o'tdi. Aslida bu Ikkinci jahon urushining bir qismi edi. 1940-yilda Latviya, Litva va Estoniya Qizil armiya tomonidan egallandi va Sovet Ittifoqi tarkibiga qo'shib olindi. Finlyandianing katta qismi egallab olinadi.

1941-yil 22-iyun kuni Germaniya qo'shnlari "Barbarossa" rejasi doirasida SSSR hududiga bostirib kirdi. Shu tariqa sovetlarning fashizmga qarshi kurashi boshlandi. Dastlab fashistlar bilan hamkorlik qilgan Sovet Ittifoqi endi Ittifoqchilar koalitsiyasiga qo'shildi. Bu paytda Sovet Ittifoqi armiyasi ancha qoloq edi. Buning oqibatida Germaniya armiyasi 1941-yilning dekabr oyida kelib Moskvadan 20 kilometr uzoqlikkacha yetib keladi.³

Xulosa

Har bir inson tarixini o'rganib albatta xolsa chiqarishi kerak. Chunki tarixdan xulsa chiqargan inson ota- bobolarimizni mehnati bizning mustaqil yashashishimiz uchun tokkan qoni biz uchun. Muqaddas zaminimizda tinch totuv yashashimizning asosiy sababi bu ota-bobolarimiz emasmi shuning qadriga yetib O'zbekistonni dunyoga tanitib buyuk davlat qilishimiz zarur, bizdan ham mashhur olimlar o'z ishining ustalari chiqadi albatta mehnat qilsak.

³ <https://daryo.uz/2020/05/09/ikkinchi-jahon-urushimi-ulug-vatan-urushimi-pro-et-contra>